



GENDER EQUALITY — THE MAIN CRITERION FOR THE DEVELOPMENT OF A DEMOCRATIC SOCIETY

Zarina Namozova

3rd-year student of Political Science

Faculty of International Relations and Philosophy

National University of Uzbekistan (NUUz)

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: gender equality, women's rights, social justice, legal framework, Uzbekistan, gender policy, democratic reforms, social activity, women's register, gender culture.

Received: 19.10.25

Accepted: 20.10.25

Published: 21.10.25

Abstract: This article analyzes the reforms carried out in Uzbekistan to ensure gender equality, their legal framework, and practical results. The research examines the socio-political importance of gender policy, its compliance with international standards, and state programs aimed at strengthening equality between women and men. Analytical, comparative, and empirical methods were used to study the current state of gender equality, identify existing problems, and develop practical recommendations. The results demonstrate the effectiveness of measures aimed at enhancing gender culture, expanding women's participation, and strengthening the principles of social justice in the country.

GENDER TENGLIK -DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTINING ASOSIY MEZONI

Zarina Namozova

O'ZMU IFF Siyosatshunoslik 3-kurs talabasi

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: gender tenglik, ayollar huquqlari, ijtimoiy adolat, huquqiy asoslar, O'zbekiston, gender siyosati, demokratik islohotlar, ijtimoiy faollik, ayollar daftari, gender madaniyati.

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning huquqiy asoslari va amaliy natijalari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida gender siyosatining ijtimoiy-siyosiy ahamiyati, xalqaro standartlarga muvofiqligi hamda

ayollar va erkaklar o'rtasidagi tenglikni mustahkamlashga qaratilgan davlat dasturlari o'rganilgan. Shuningdek, maqolada tahliliy, taqqoslama va empirik metodlar asosida gender tenglikning hozirgi holati, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari mamlakatda gender madaniyatini oshirish, ayollar faolligini kengaytirish va ijtimoiy adolat tamoyillarini mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlarning samaradorligini ko'rsatadi.

ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО — ОСНОВНОЙ КРИТЕРИЙ РАЗВИТИЯ ДЕМОКРАТИЧЕСКОГО ОБЩЕСТВА

Зарина Намозова

*Студентка 3-го курса факультета международных отношений и философии
направление «Политология»*

*Национальный университет Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: гендерное равенство, права женщин, социальная справедливость, правовые основы, Узбекистан, гендерная политика, демократические реформы, социальная активность, женский реестр, гендерная культура.

Аннотация: В данной статье анализируются реформы, проводимые в Узбекистане для обеспечения гендерного равенства, их правовые основы и практические результаты. В ходе исследования изучено социально-политическое значение гендерной политики, её соответствие международным стандартам, а также государственные программы, направленные на укрепление равенства между женщинами и мужчинами. На основе аналитических, сравнительных и эмпирических методов определено современное состояние гендерного равенства, выявлены существующие проблемы и разработаны предложения по их устранению. Результаты исследования показывают эффективность мер, направленных на повышение гендерной культуры, расширение участия женщин и укрепление принципов социальной справедливости в стране.

Kirish. Gender tenglik – har bir jamiyat taraqqiyotining, milliy madaniyatining, demokratik qadriyatlar ustuvorligi va inson huquqlarini to'liq amalga oshirilishining muhim ko'rsatkichi hisoblanadi. Yangilangan Konstitutsiyamizda ayollar va erkaklar teng huquqliligi

mustahkamlanib, barcha sohalarida teng imkoniyatlar kafolatlandi. Mehnat kodeksiga kiritilgan o'zgartirishlar esa, xalqaro standartlarga mos ravishda teng ish haqi ta'minlanishiga yo'l ochdi.

2019-yilda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Oiladagi zo'ravonlikka qarshi kurashish bo'yicha qonunchilik takomillashtirildi. Davlat organlari va tashkilotlarda, shu jumladan, xususiy sektorda Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash masalalari bo'yicha maslahat-kengash organlari, xotin-qizlar bilan ishlash bo'yicha maxsus tuzilmalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash uchun imtiyozli kreditlar, grantlar va ta'lim kurslari joriy etildi. Qishloq joylarda ish o'rinlari va kasb-hunarga o'qitish dasturlari amalga oshirilmoqda. "Ayollar daftari" joriy etilib, muammoli toifadagi xotin-qizlar bilan maqsadli ish olib borilmoqda. Ta'lim tizimida genderga yo'naltirilgan yondashuvlar joriy etilgani teng imkoniyatlar madaniyatiga ega yangi avlodni tayyorlashga xizmat qilmoqda. Qiz bolalar uchun barcha bosqichdagi ta'lim muassasalariga teng kirish imkoniyati ta'minlanmoqda. STEM sohalarida qizlarning ishtiroki faollashmoqda. Jamoatchilik va fuqarolik ta'limi doirasida gender masalalariga bag'ishlangan o'quvlar tashkil etilmoqda. 2024 -yilda tayyorlangan milliy hisobotda mamlakatimizda amalga oshirilgan islohotlar, mavjud muammolar va istiqbolli vazifalar atroflicha yoritilgan. Shu bilan birga, mamlakatda Barqaror rivojlanish maqsadlari (BRM), xususan BRM 5 — gender tenglikni ta'minlash doirasida qo'shimcha dasturlar amalga oshirilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, Birlashgan Millatlar tashkilotining O'zbekistondagi doimiy vakili Xelena Freyzerning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan gender siyosati haqida so'zlagan nutqida "Barchaga ma'lum, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi "2030-yilgacha bo'lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qildi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida "Gender tenglikni ta'minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish"ga oid to'qqizta vazifani ishlab chiqdi.

Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030-yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to'liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender

tenglik tamoyillarini joriy qilishni o'z ichiga oladi. So'nggi yillarda gender tenglikni ta'minlash, ayollarning ijtimoiy va siyosiy hayotdagi rolini oshirish bo'yicha ishlar bir necha yo'nalishlarda olib borilmoqda:

- ayollar huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirish;
- ayollarni himoya qilishning institutsional asoslarini takomillashtirish;
- aholining gender tenglik va ayollar huquqlari to'g'risida xabardorligini oshirish;
- huquqni qo'llash amaliyotida ularga rioya etilishini ta'minlash uchun mas'ul mansabdor shaxslarni tegishli huquqiy me'yorlar asosida o'qitish.

O'zbekistonda bir qator qonun hujjatlari, jumladan, Prezidentning xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash, xususan, gender tengligi va ayollarni zo'ravonlik va zulmdan himoya qilish, ayollar tadbirkorligini rivojlantirish maqomini kuchaytirish to'g'risidagi farmon va qarorlari qabul qilingan. Gender tengligini joriy qilish nuqtayi nazaridan ta'limdagi ijobiy siljishlarni alohida ta'kidlash kerak. Ya'ni, 2017-yildan boshlab aksariyat oliy o'quv yurtlarida turli mutaxassisliklar bo'yicha sirtqi bo'limlar faoliyati tiklandi. Ta'limning ushbu shakli yosh ayollarga bolalarni parvarish qilish va boshqa oilaviy majburiyatlarni bajarishga xalal qilmasdan oliy ma'lumot olish imkoniyatini beradi.

Metodlar. Ushbu tadqiqotda gender tenglik masalasining O'zbekiston jamiyatidagi o'rni va rivojlanish jarayonlari tahlil qilinar ekan, ilmiy izlanishning ishonchliligini ta'minlash maqsadida bir nechta ilmiy-tahliliy va interfaol metodlar qo'llanildi.

- Tahliliy-metodik yondashuv: Mavzuga oid O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlar kafolati to'g'risida"gi Qonun, "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun, hamda BMT va BRMning rasmiy hujjatlari o'rganildi. Ushbu yondashuv orqali gender siyosatining normativ-huquqiy asoslari tahlil qilindi.

- Taqqoslama (komparativ) metod: O'zbekiston tajribasi xalqaro andozalar, xususan BMTning Barqaror rivojlanishning 5-maqsadi (Gender tenglik) doirasidagi maqsad va ko'rsatkichlar bilan taqqoslab o'rganildi. Bu metod orqali mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning global standartlarga muvofiqligi aniqlanadi.

-Empirik tahlil metodi: Gender tenglik sohasida olib borilayotgan amaliy chora-tadbirlar – "Ayollar daftari", ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash dasturlari, STEM yo'nalishlarida qizlar faolligini oshirish kabi tashabbuslarning natijalari tahlil qilindi. Ma'lumotlar gender.stat.uz saytidagi statistik ko'rsatkichlar va Milliy hisobotlar asosida tahlil etildi.

- Sotsiologik kuzatuv va kontent tahlil: Ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda va rasmiy saytlar orqali gender tenglik mavzusining yoritilishi, shuningdek, jamoatchilik fikrining

shakllanish jarayoni o'rganildi. Bu yondashuv yordamida gender masalalarining ijtimoiy ongda o'rni tahlil qilindi.

Umuman olganda, metodlar majmuasi gender siyosatini nazariy, huquqiy va amaliy jihatdan har tomonlama o'rganish, shuningdek, O'zbekistonda ayollar va erkaklar tengligini ta'minlash borasidagi islohotlarning natijadorligini tahlil qilishga xizmat qildi.

Natijalar. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash borasida so'nggi yillarda sezilarli natijalarga erishilmoqda. Qonunchilik, ijtimoiy siyosat va ta'lim tizimida olib borilgan islohotlar natijasida ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar yaratish bo'yicha barqaror tizim shakllanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirishni o'rinli deb bilaman: "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak". Shu kuni Prezidentning taklifiga binoan, mamlakat tarixida ilk bor Senat raisligiga ayol kishi – Tanzila Norboyeva saylandi. Ma'lumki, Norboyeva xonim O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi raisi bo'lib ishlagan. Mazkur sohadagi qonunchilik choralariga to'xtaladigan bo'lsak, O'zbekistonda xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-yil sentyabr oyida "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonunlar qabul qilindi. BMTning deyarli barcha agentliklari, jumladan BMT Taraqqiyot Dasturi, BMT Aholishunoslik jamg'armasi (YUNFPA), BMT Bolalar jamg'armasi (YUNISEF), BMT Inson huquqlari bo'yicha Oliy komissari boshqarmasi, BMTning Narkotik moddalar va jinoyat boshqarmasi, Xalqaro migratsiya tashkiloti ushbu ikki qonun bo'yicha o'z izoh va takliflarini berishdi.

Gender tenglik bo'yicha institutsional choralarga kelsak, ayni paytda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tarkibida ayollar huquqlarini ta'minlash va kamsitishning har qanday shakliga barham berish bo'yicha milliy qonunchilikda xalqaro standartlarni uyg'unlashtirish bilan shug'ullanuvchi yangi Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil qilingan. Bundan tashqari, mehnatga oid huquqlarning kafolatlari va qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish, uydagi zo'ravonlik qurbonlariga yordam berish maqsadida Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan shaxslarni rehabilitatsiya qilish va moslashtirish hamda o'z joniga qasd qilishning oldini olish respublika markazi va Xotin-qizlar tadbirkorligi markazi, Hukumat huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi kabi yangi tuzilmalar tashkil topdi. Mazkur yangi

tashkil etilgan barcha institutsional mexanizmlar O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi bilan birgalikda BMT Konvensiyasiga muvofiq ayollar huquqlari, gender tengligi va xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarga barham berishning yagona yaxlit mexanizmiga aylanishi masalaning muhim tomonidir. Ta’kidlash joiz, qabul qilingan normativ-me’yoriy hujjatlar va amaliy chora-tadbirlar O‘zbekistonning gender siyosati sohasidagi muhim qadamidir va u qonunchilik hamda amaliyotning xalqaro me’yori va standartlariga to‘liq mos keladi, shu bilan birga, ularning bir qismi BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tavsiyalariga asoslangan. Ayniqsa, “Xotin-qizlarni taziyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun ko‘p yillik muhokamalardan so‘ng qabul qilindi. Qonun oiladagi zo‘ravonlik qurbonlariga yordam berish, ularga boshpanalar ajratish, ishonch telefonlari va nafaqat jismoniy zo‘ravonlik, balki psixologik yoki iqtisodiy jinoyatlar bo‘yicha majburiy javobgarlikka tortish orqali ayollarni himoya qilish uchun asosdir. Bunday choralar, xususan, BMTning inson huquqlari bo‘yicha idoralari tomonidan uzoq vaqt davomida tavsiya qilib kelingan.

Gender siyosatining monitoringi va samaradorligini baholash sohasida www.gender.stat.uz saytida qo‘shimcha 54 ta gender ko‘rsatkichlarini kiritish orqali muhim o‘zgarishlar ro‘y berdi. Shu bilan birga, ushbu yo‘nalishda davomiy izchil ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Bu yerda nafaqat qabul qilingan ko‘rsatmalar, balki ularning xalqaro majburiyat va standartlarga muvofiqligi, joylarda o‘z vaqtida va aniq bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Shu ma’noda, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirok etishini ta’minlash bo‘yicha ishlarni izchil davom ettirish zarur. Binobarin, “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida”gi va “Xotin-qizlarni taziyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunlarning bajarilishini ta’minlash uchun “Yo‘l xaritalari”ni qabul qilish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, Gender tengligi bo‘yicha milliy strategiyani qabul qilish rejasi ham mavjud. BMT agentliklari gender tenglik va kamsitmaslik masalalarida, shu jumladan maxsus hujjatlarni rejalashtirish, ishlab chiqish va amalga oshirish, yangi kodekslarning maxsus qoidalarini – jinoiy, protsessual va ijro etuvchi bosqichlarni ishlab chiqishda bundan keyin ham ko‘mak berishga tayyor. Shuningdek, qabul qilinayotgan u yoki bu darajadagi hujjatlarning ayollar va erkaklar uchun bir me’yorda bo‘lishiga erishish uchun qonunchilikning gender ekspertizasini o‘tkazish majburiyligini ta’minlash muhimdir. O‘z navbatida, biznes inkubatorlari bilan bir qatorda, ayollarni ta’lim va fan sohasida rag‘batlantirish, shuningdek, STEM (Fan, texnologiya, muhandislik, matematika) laboratoriyalar yaratish orqali ularni tabiiy va texnik fanlar sohasiga jalb qilish choralarini ko‘rish zarur. Bu, o‘z navbatida, ayollarning bandligini, zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Qabul qilinayotgan chora-tadbirlar mamlakatning barcha hududlari va xotin-qizlarning barcha toifalarini qamrab olishi kerak.

Xususan, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish kun tartibidagi tamoyillarni, ayniqsa, "hech kimni ortda qoldirmaslik" tamoyilini hisobga olgan holda, har xil kamsitish shakllariga moyil bo'lgan xotin-qizlarning holatiga alohida e'tibor qaratish dolzarb masaladir. Bu yerda mamlakatning chekka hududlaridagi qishloqlardagi xotin-qizlarga, etnik ozchilik guruhleri, nogironlar, OIV/OITSga chalingan ayollar, ozodlikdan mahrum qilish va cheklash joylaridagi xotin-qizlarga (shu jumladan qamoqxonalar, pansionatlar, qariyalar uylari va ruhiy kasalliklar shifoxonalari), inson huquqlari himoyachilari, fuqaroligi bo'lmagan shaxslar va qochqinlarga asosiy e'tibor qaratiladi. Ayni paytda BMTning O'zbekistondagi agentliklari o'rtasidagi hamkorlik doirasida gender masalalari bo'yicha maxsus guruh faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, uning tarkibiga BMTning deyarli barcha agentliklari vakillari kiritilgan. Masalan, yuqorida qayd etilgan Qonunlarga berilgan tavsiyalar hali loyiha paytida guruh ishining bir qismi edi. Ushbu guruh faoliyati misolida BMT agentliklari boshqa qonun hujjatlarini ishlab chiqishda yordam berishga doim tayyor. Bundan tashqari, konferensiya, videorolik, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi qoshidagi yuridik klinika, ijtimoiy tarmoqlar kabi turli formatlarda ayollar muammolari to'g'risida xabardorlikni oshirish bo'yicha ko'plab tadbirlar kun tartibidan joy olgan. Bu borada "Taraqqiyot strategiyasi markazi va boshqa nodavlat tashkilotlar bilan ham faol hamkorlikda ish olib borilmoqda. O'z navbatida, O'zbekistondagi BMTning jamoasi ayni paytda barcha milliy hamkorlar va boshqa manfaatdor tomonlarning keng maslahatlashuvlari bilan ishlab chiqilayotgan "2021-2025-yillarga mo'ljallangan Barqaror rivojlanish hamkorlik dasturi" doirasida gender tenglikni ta'minlash uchun mamlakatga har tomonlama yordam berishda davom etadi.

Muhokama. Ozbekistonda xotin-qizlarga bo'lgan munosabat, ularning huquqlari va erkinliklarini himoya qilish davlat siyosati darajasigacha ko'tarilgan. Birinchi Prezidentimiz I. Karimov bu masalaga jiddiy e'tibor qaratib kelgan. Xususan, u 1998-yil 5-dekabrda Konstitsiya qabul qilingan kun munosabati bilan o'tkazilgan tantanali majlisda so'zlagan nutqida 1999-yilni "Ayollar yili" deb e'lon qilar ekan, shunday degan edi: "Insoniyat tarixi guvohlik beradiki, ming yillar jarayonida har jamiyatning madaniy va ma'naviy hayoti ularning ayollarga bo'lgan munosabati bilan belgilangan. Bizga bu qadriyat yanada qimmatlidir, chunki biz ayollarga sharqona hurmat bilan munosabatda bo'lamiz" deb ta'kidlagan. Yuksak ma'naviyatli va madaniyatli onalarimizning izdoshlari bugin davlat va jamiyat qurilishida, ishlab chiqarishda, ilmfan, madaniyat, tibbiyot, ta'lim, xatto, xatto harbiy sohada tolmay xizmat qilishmoqda. Siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash uchun 2030 yilgacha erishiladigan maqsadlarning samaradorlik ko'rsatkichlarini yanada oshirish, gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foizga oshirish.

Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta‘minlash. «Ayollar daftari» bilan manzilli ishlashning shaffof mexanizmini yaratish, mazkur ishlar bo‘yicha jamoatchilik nazoratini o‘rnatish. Yurtimizda xotin-qizlarning mavqeyini yanada yuksaltirish, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun yanada kengroq shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Xarakatlar strategiyasida “Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bo‘yicha chora tadbirlar to‘g‘risidagi qarorda ham o‘z tasdig‘ini topgan.

Xulosa va takliflar. Ayollarsiz xayotni, taraqqiyotni tasavvur etib bo‘lmaydi. Shu o‘rinda ma‘rifatparvar olom M. Behbudiyning quyidagi fikrlari esga tushadi: “Xotin-qizlarni jamiyatning to‘laqonli a‘zolari sifatida qabul qilmasdan, yosh avlodni to‘g‘ri yo‘lda tarbiyalamasdan turib jamiyatni isloh qilish, uni taraqqiyot sari yo‘naltirish mumkin emas, oxir-oqibatda millat taqdiri uning ayollari va oilasining xolatiga bo‘g‘liqdir”.

Shuningdek, Quroni karimda: “Xotin-qizlar uchun (belgilangan huquqlari) o‘z me‘yorida erkaklar huquqi bilan tendir”, -deyiladi.

Ushbu xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- bandlikni ta‘minlash maqsadida qonuniy migratsiyani kuchaytirish va tizimlashtirish;
- xotin-qizlarning bilim va kasbga qiziqishlarini ro‘yobga chiqarish jarayonini har tomonlama rag‘batlantirish;
- xotin-qizlarning ilm-fandagi faolligini ta‘minlashga alohida e‘tibor berish;
- o‘quvchi va talaba-qizlarning tabiiy, gumanitar fanlarni o‘zlashtirishlari uchun o‘rta maktablar va oliy o‘quv yurtlari o‘quvchilari mas‘ulligini oshirish;
- xotin-qizlarning ijodiy izlanishlariga moddiy va ma‘naviy shart-sharoit yaratish.

Shuningdek, qizlarni ish bilan ta‘minlash, munosib mehnat sharoitlarini yaratish va ularni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash borasidagi ishlarning samaradorligini oshirish, o‘zini o‘zi band qilishga erishish.

Eng asosiysi – xotin-qizlarga nisbatan ish joylaridagi tazyiq va zo‘ravonlik holatlarining oldi olinib, jamiyatda xotin-qizlarga nisbatan shakllangan salbiy qarashlarga barham beriladi. Bu – kutilayotgan natijalarning bir qismi, xolos. Mazkur Strategiyaning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi barcha hamkorlar va turli darajadagi mas‘ullarning faolligini talab qiladi. Belgilangan davrda Strategiya maqsadlariga erishish avvalo mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotini jadallashtirish, demakki xalq farovonligini yuksaltirishga, jamiyatdagi ko‘plab muammolarni hal qilishga, kundalik hayotimizning yana-da yaxshi tomonga o‘zgarishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Xarakatlar strategiyasi to'g'risida PF-4947-sonli Farmoni.
2. Behbudiy M. Xifzi sixati oila\Oyna .1914.N53.
3. Alimov U. Oilada farzand tarbiyasi .-Toshkent: Movarounnahr, 2019-B23.
4. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonun. – 2019-yil 2-sentabr, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.
5. "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonun. – 2019-yil 2-sentabr, O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami.
6. Xelena Freyzer. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan gender siyosati haqida ma'ruza. – BMT O'zbekiston vakolatxonasi, 2020-yil 8-yanvar.